


Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019- yil 1-aprel holatiga)

2019-yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida 1365 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 491 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2569 ta (19,9 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15498 tani tashkil etgan.












Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2447	2296	181
 Sanoat	2631	2528	265
 Qurilish	1571	1530	164
 Savdo	3344	3162	534
 Tashish va saqlash	555	531	28
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1063	1009	58
 Axborot va aloqa	193	174	6
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	215	212	8
 Boshqa turlari	4212	4056	121



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019- yilning 1-aprel holatiga 16231 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 20,6 % savdo, 16,2 % sanoat, 15,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9,7 % qurilish, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 1,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 26,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning o'sishi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (4980 ta), Sharof Rashidov (2652 ta), Zomin (1331 ta) va G'allaorol (1223 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiobod (359 ta), Zafarobod (450 ta) hamda Arnasoy (493 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalarining yillar kesimida soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda





Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **15498** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2569 ta (19,9 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,4 % savdo faoliyati, 16,3 % sanoat sohasi, 14,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9,9 % qurilish, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 3,4 % tashish va saqlash sohasi, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi, 1,1 % axborot va aloqa sohasi va 26,2 % esa boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (4768 ta), Sharof Rashidov (2587 ta), Zomin (1229 ta), G'allaorol (1220 ta) va Forish (1084 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha, Yangiobod (346 ta), Zafarobod (393 ta) hamda Arnasoy (490 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.04.2017 y.

• 11553 ta

01.04.2018 y.

• 12929 ta

01.04.2019 y.

• 15498 ta




- **Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar**
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-mart oylarida 1365 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 56,2 % ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Jizzax shahri (431 ta), Sharof Rashidov (255 ta), Zomin (122 ta) va G'allaorol (91 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Zafarobod (25 ta), Yangiobod (33 ta) hamda Arnasoy (45 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (534 ta), sanoat (265 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (181 ta) va qurilish (164 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (6 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (8 ta) hamda tashish va saqlash (28 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.04.2017 y.		01.04.2018 y.		01.04.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Jizzax viloyati bo'yicha jami	661	100	874	100	1365	100
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	214	32,4	202	23,1	181	13,3
Sanoat	143	21,6	144	16,5	265	19,4
Savdo	100	15,1	113	12,9	534	39,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	63	9,5	45	5,1	58	4,2
Qurilish	52	7,9	59	6,8	164	12,0
Tashish va saqlash	25	3,8	15	1,7	28	2,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	1,2	8	0,9	8	0,6
Axborot va aloqa	6	0,9	9	1,0	6	0,4
Boshqa turlari	50	7,6	279	32,0	121	8,9

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






• **Tijorat korxonalari** (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-aprel holatiga Jizzax viloyatida 12480 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 4123 ta, oilaviy korxonalar – 603 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 7422 ta va boshqa shakldagilar 332 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining ulushi, %
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



• **Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2019-yil 1-aprel holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 142 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 52 taga yoki 57,8 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 97 tasi qo'shma korxonalar, 45 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahar (63 ta yoki jamidagi ulushi 44,4 %), Forish (13 ta yoki 9,2 %), Zomin va Sharof Rashidov (11 ta yoki 7,7 %), G'allaorol tumanlari (10 ta yoki 7,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mirzacho'l (1 ta yoki 0,7 %), Arnasoy (2 ta yoki 1,4 %) va Zarbdor tumanlari (3 ta yoki 2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 80 tani (56,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 25 tani (17,6 %), savdoda 17 tani (12,0 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 4 tani (2,9 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 2 tani (1,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda va tashish va saqlashda 4 tani (2,8 %) va qurilishda 6 tani (4,2 %) tashkil qilgan. Ko'rinib

turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, axborot va aloqa hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda va tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 17 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga ko'paygan.

Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 6 ta, Rossiya Federatsiyasi - 5 ta, Turkiya Respublikasi – 2 ta, Afg'oniston Respublikasi 2 ta, Qozog'iston Respublikasida – 1 ta va Pokiston Islom Respublikasida – 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda (8 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (5 ta), qurilishda (2 ta), tashish va saqlashda (1 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar turlari (1 ta) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi


	2018 yil yanvar-mart oylarida		2019 yil yanvar-mart oylarida	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan, %	Jami	Umumiy soniga nisbatan, %
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	36,4	5	29,4
Sanoat	3	27,3	8	47,1
Savdo	3	27,3	x	x
Qurilish	1	9,0	2	11,7
Tashish va saqlash	x	x	1	5,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	x	x	1	5,9



- Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-aprel holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 12445 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-aprel holatiga qaraganda 24,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4065 tasi (32,7 %) Jizzax shahri, 2258 tasi (18,1 %) Sharof Rashidov, 960 tasi (7,7 %) G'allaorol hamda 928 tasi (7,5 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 12445 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3154 tasi (25,3 %) – savdo, 2509 tasi (20,2 %) - sanoat, 2262 tasi (18,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1527 tasi (12,3 %) - qurilish, 1007 tasi (8,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 528 tasi (4,2 %) - tashish va saqlash, 156 tasi (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, 142 tasi (1,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1160 tasi (9,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-mart oylarida 1309 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,0 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (416 ta), Sharof Rashidov (240 ta), Zomin (190 ta) va G'allaorol tumanlari (88 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Zafarobod (24 ta), Yangiobod (31 ta), Arnasoy va Do'stlik (44 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (534 ta), sanoatda (263 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (180 ta), qurilishda (164 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi (58 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (6 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (8 ta) hamda tashish va saqlashda (28 ta) tashkil etilgan.




• Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019-yilning 1-aprel holatiga 628 tani tashkil etib, ulardan 603 tasi yoki 96,0 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 49,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Ro'yxatdan o'tgan




Faoliyat ko'rsatayotgan



Yangi tashkil etilgan


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 42,8 % yoki 258 tasi sanoat, 23,1 % yoki 139 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,1 % yoki 97 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 10,8 % yoki 65 tasi savdo, 0,8 % yoki 5 tasi qurilish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,2 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 0,2 % yoki 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 5,7 % yoki 35 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar Sharof Rashidov tumanida (160 ta), Jizzax shahri (159 ta), Do'stlik (48 ta) va Zomin tumanlari (46 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Arnasoy (5 ta), Mirzacho'l (6 ta), Paxtakor (7 ta) va Yangiobod (10 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
hududlar kesimida soni, birlik
(2019-yil 1-aprel holatiga)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-83-65 (66)